

Yer resurslarini boshqarish fakulteti

Fakultet dekanı

Narbayev Sharofiddin Kengeshovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qabul kunlari: Seshanba, Chorshanba, Payshanba, Juma: 14:00-16:00

tel.: +998-71-237-09-70

e-mail: narbayev_sh@mail.ru

www.lulc.tiame.uz

Fakultet haqida

Fakultet 1945 yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti (TIQXMII) tarkibida "Yer tuzish" nomi bilan tashkil etildi. Fakultet 2004 yildan 2018 yilga qadar Yerdan foydalanish va yer kadastri nomi bilan faoliyat ko'rsatgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 maydagi 3702-sonli Qaroriga asosan hozirda "Yer resurslarini boshqarish" nomi bilan faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Fakultet respublikada yer tuzish, yer kadastri, geodeziya, geoinformatika, kartografiya va davlat kadastrlari sohalari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan yetakchi maskan hisoblanadi. Fakultet dastlab tashkil etilganda uning birinchi rahbari dotsent M.N.Maslov, keyinchalik esa professor P.K.Tatur, dotsentlar J.K.Baranov, V.S.Artamonov, A.N.Nazirov, A.T.Abdurazzoqov, professor O.Ramazonov, dotsent Q.Raxmonov, professor S.Avezbayev va dotsent Z.Muqimovlar yetakchilik qilishdilar. 2019 yildan buyon PhD dotsent Sh.Narbayev fakultetga rahbarlik qilib kelmoqda. Fakultet tarkibida dastlab bitta "Geodeziya" kafedrası mavjud bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda "Yer tuzishni loyihalash", "Qishloq aholi yashash joylarini loyihalash va obodonlashtirish", "Aerofotogeodeziya", "Tuproqshunoslik va dehqonchilik", "Yer tuzish va yer munosabatlari", "Yer kadastri", "Kartografiya" kafedralari tashkil etilgan.

Bugungi kunda fakultetda "Yerdan foydalanish", "Geodeziya va geoinformatika", "Davlat kadastrlari" va "Oliy matematika" kafedralari faoliyat ko'rsatmoqda. Kafedralarda respublikamiz ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shayotgan olimlar va yetuk professorlar A.Chertoviskiy, S.Avezbayev, B.Xudoyorov, A.Altiyev, U.Nigmadjanov, dotsentlar Q.Raxmonov, I.Musayev, A.Babajanov, Sh.Narbayev, X.Xayitov, O.Ko'charov, T.Ergashev, Sh.Lakayev, R.Oymatov, A.Inamov va malakali o'qituvchilar talabalarga ta'lim-tarbiya berishmoqdalar. Fakultetda yer tuzish va yer kadastri, geodeziya va kartografiya sohalari bo'yicha ishlab chiqarish bilan uzviy aloqalarni ta'minlash, talabalarga bilim berish va professor - o'qituvchilarning malakasini oshirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shuningdek o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil qilish maqsadida "Davergeodezkadastr" qo'mitasi va uning tizimidagi korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

[Fakultet sayti www.lulc.tiame.uz](http://www.lulc.tiame.uz) [Fakultet dekanati](#) [Bakalavriatura yo'nalishlari](#) [Magistratura yo'nalishlari](#)
[Fakultetning iqtidorli talabalari](#)